

Toshkentdan Tbilisiga aviaqatnovlar ikki marotaba amalga oshiriladi

2022 20 Dekabr

Hozirda Toshkent – Tbilisi – Toshkent xalqaro qatnovlari seshanba kunlari amalga oshirilmoqda. 2023-yil 13-yanvardan boshlab Uzbekistan Airways ushbu yo‘nalishda juma kunlari qo‘shimcha qatnovlarni yo‘lga qo‘yadi.

Toshkent – Tbilisi yo‘nalishidagi aviachipta narxi 2 183 140 so‘mdan (bagajsiz) va 2 481 383 so‘mdan (bagaj bilan), Toshkent – Tbilisi – Toshkent yo‘nalishidagi aviachiptalar esa 4 053 657 so‘mdan (bagajsiz) va 4 650 144 so‘mdan (bagaj bilan) boshlanadi.

Narxlar 19.12.2022y. holatiga ko‘ra amal qiladi.

Aviachiptalarni www.uzairways.com rasmiy saytida 3% chegirma bilan, Uzbekistan Airways Sales filialida va aviakompaniya agentlaridan xarid qiling.